

 Postpaid tizimida uyali radiotelefon aloqasi xizmatlarini ko'rsatish bo'yicha Shartnoma				
	Shartnoma raqami	Shartnoma tuzilgan sana	Shaxsiy hisob (ACCID)	Shahar (shartnoma tuzilgan joy)

Kompaniya – «COSCOM» mas'uliyati cheklangan jamiyat («Ucell» savdo belgisi) nomidan Nizom asosida faoliyat yurituvchi bosh direktor Shishkovskiy Andrey Yurevich.

Yuridik manzil: O'zbekiston Respublikasi, 100031, Toshkent sh., V.Vahidov ko'chasi 118 uy

Bank rekvizitlari: h/r: 20208000000457913001 "O'zsanoatqurilishbank" ATB dagi OPERBda, Toshkent sh., bank kodi 00440

Registratsiya ma'lumotlari: STIR 201788904, OKED 61200

Mijoz:			
Yuridik shaxsning nomi yoki jismoniy shaxsning F.I.Sh. (to'liq)			
Bank rekvizitlari:			
Yuridik shaxsning bank rekvizitlari yoki jismoniy shaxsning shaxsini tasdiqlovchi hujjatning ma'lumotlari			JShShIR (jismoniy shaxs uchun)
Yuridik manzil:			
Yuridik shaxsning manzili yoki jismoniy shaxsning doimiy, vaqtincha ro'yxatdan o'tish ma'lumoti			

Individual ravishda "Tomon" va birgalikda "Tomonlar" deb yuritiluvchi Kompaniya bir tomondan va Mijoz ikkinchi tomondan ushbu Shartnomani (keyingi o'rinlarda - "Shartnoma") quyidagicha tuzdilar.

1. Shartnoma mazmuni

1.1 Kompaniya uyali radiotelefon aloqasi xizmatlarini (keyingi o'rinlarda - "Xizmatlar") Mijoz tanlagan ro'yxat va hajmlarga (Shartnomaga "A" ilovasini) muvofiq taqdim etadi, Mijoz esa ulardan foydalanadi va to'lovlarni amalga oshiradi.

2. Tomonlarning majburiyatlari

2.1 Kompaniyaning majburiyatlari:

2.1.1. Mijozga Shartnomaning amal qilish muddati davomida Kompaniyaga tegishli abonent raqami(lar)ni, shuningdek, SIM-kartani (ICC ID SIM CARD) taqdim etish. SIM-kartaning narxi ulanish narxiga kiritilgan. Abonent raqami va SIM-karta raqami Shartnomaning "A" ilovasida ko'rsatilgan.

2.1.2. Shartnomaning 4-bo'limiga muvofiq Mijoz oldindan to'lovni amalga oshirgandan so'ng 1 (bir) ish kuni ichida Mijozga Xizmatlarni ko'rsatishni boshlash.

2.1.3. Mijozning shaxsiy hisobida pul mablag'lari mavjud bo'lsa, Mijoz tomonidan tanlangan ro'yxat va joriy sanaga Kompaniyada amal qiladigan tarif rejalari va tariflariga muvofiq Mijozga Xizmatlarni taqdim etish. Mijoz tomonidan tanlangan Xizmatlarning dastlabki ro'yxati Shartnomaning "A" ilovasida ko'rsatilgan va keyinchalik o'zgartirilishi mumkin:

2.1.3.1. yuridik shaxslar uchun - yozma ariza yoki Kompaniya tomonidan taqdim etilgan boshqa usullar bilan;

2.1.3.2. jismoniy shaxslar uchun - to'g'ridan-to'g'ri savdo shoxobchalariga murojaat qilish orqali, imzolangan "Shartnomaning "A" ilovasiga belgilangan shakldagi o'zgartirishlar kiritish to'g'risidagi ariza" asosida yoki Kompaniya tomonidan ko'zda tutilgan boshqa usullar bilan.

2.1.4. Hisobot davri uchun ko'rsatilgan Xizmatlar uchun hisob-fakturalarni shakllantirish, O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq hisobot davridan keyingi oyning 10-sanasi qadar Soliq.uz sayti orqali Mijozga hisob-fakturalarni taqdim etish. Mijoz tanlagan usulda to'lov uchun ma'lumotlar va hisob-fakturalarni taqdim etish.

2.1.5. Mijozni Shartnoma shartlari, Xizmatlar uchun tariflar, ko'rsatiladigan xizmatlar ro'yxati, Xizmatlarni ko'rsatish tartibi va shartlari, xizmat ko'rsatish shartlari, to'lov tartibi va shakli, to'lov valyutasidagi o'zgarishlar to'g'risida ommaviy axborot vositalari orqali yoki Kompaniya tomonidan tanlangan boshqa usulda ushbu o'zgartirishlar Kompaniya tomonidan kiritilishidan kamida 5 (besh) kun oldin xabardor qilish, va agar bu o'zgarishlar Mijozning ahvolini yomonlashtiradigan bo'lsa, kamida 10 (o'n) kun oldin. Agar Mijoz Kompaniyaga bog'liq bo'lmagan sabablarga ko'ra bunday o'zgarishlardan xabardor bo'lmasa, Kompaniya javobgar hisoblanmaydi va bu boradagi shikoyat va da'volarni qabul qilmaydi.

2.1.6. 2.2.4-bandda ko'rsatilganidek, kompaniya mijozdan xabar olgandan keyin Shartnoma bo'yicha xizmatlarni taqdim etishni vaqtincha to'xtatib turish. Bunday xabarni olishdan oldin ko'rsatilgan xizmatlar Mijoz tomonidan to'lanadi.

2.1.7. Ko'chirilgan raqamlarning ichki ma'lumotlar bazasini shakllantirish, o'z tarmog'idan ko'chirilgan abonent raqamlariga ulanishlarni to'g'ri yo'naltirishni ta'minlash uchun zarur bo'lgan ishlash jarayoni va texnik monitoringni ta'minlash va tuzilgan shartnomaning amal qilish muddati davomida Telekommunikatsiya xizmatlarini ko'rsatish qoidalarida belgilangan tartibda uyali aloqa xizmatlarini ko'rsatish.

2.1.8. Korporativ mijozga mobil tarmoqlarda abonent raqamlarini ko'chirish shartlari haqida ma'lumot berish.

2.1.9. SMS-xabar yuborish orqali Korporativ mijozga Donor oldidagi qarzdorlikni to'lash zarurligi haqida xabar berish

2.1.10. Retsipient va Korporativ mijoz o'rtasidagi shartnoma bekor qilingan taqdirda, qonun hujjatlarida belgilangan muddatlarda o'tkazilgan abonent raqamini Donorga qaytarish.

2.1.11. Agar abonent raqamining noto'g'ri ko'chirilganligi aniqlansa, korporativ mijozning Kompaniyaning axborot-ma'lumot xizmatiga yozma arizasi yoki so'rovi asosida xato ko'chirilgan abonent raqamini qaytarish jarayonini boshlash.

2.1.12. Kompaniya tarmog'ida raqamni xato ko'chirilganligi uchun oldindan to'lovni qaytarish, agar bunday ko'chirish korporativ mijozning aybi bilan amalga oshirilmagan bo'lsa.

2.1.13. Xizmatlarni, tarif rejasini, noto'g'ri ko'chirilgan abonent raqami balansini kompaniyaning rasmiy veb-saytida ko'rsatilgan muddatlarda xato ko'chirish vaqtigacha bo'lgan holatgacha tiklash.

2.2. Mijozning majburiyatlari:

2.2.1. Kompaniya tomonidan ko'rsatilgan xizmatlar uchun o'z vaqtida to'lovni amalga oshirish.

2.2.2. Hisoblarni qabul qilish va Elektron raqamli imzodan foydalangan holda Kompaniyaning hisob-fakturalarini imzolash va Shartnoma va/yoki Xizmatlar shartlariga muvofiq to'lovni amalga oshirish.

2.2.3. Mijoz tanlagan Xizmatlar narxining kamida 15% miqdorida oldindan to'lovini amalga oshirish.

2.2.4. SIM-karta yo'qolgan, yo'qotilgan, o'g'irlangan taqdirda darhol Kompaniyani xabardor qilish:

- yuridik shaxslar uchun - yozma shaklda;

- jismoniy shaxslar uchun - yozma va/yoki og'zaki, Kompaniya tomonidan belgilangan tartibda, mijozning shaxsini majburiy identifikatsiya qilgan holda.

Mijoz belgilangan shartlarga rioya qilmasa, u yo'qolgan/yo'qotilgan SIM-karta yordamida olingan Kompaniya tomonidan ko'rsatilgan xizmatlar uchun bu to'g'risida Kompaniya Mijoz SIM-kartani yo'qotganligi va Xizmatlarni ko'rsatishni to'xtatib qo'yish istagi haqidagi yozma/og'zaki bildirishnomani (xabarnoma) olgunga qadar to'lovlarni amalga oshirish majburiyatini oladi.

2.2.5. Hisob-kitoblarni naqd pulsiz shaklda bank to'lov hujjatlarida to'lov amalga oshirilayotgan Kompaniyaning hisob-kitob tizimida (billing) mijozga biriktirilgan Mijozning shaxsiy hisobini (ACCID) ko'rsatish, shuningdek O'zbekiston Respublikasining naqd pulsiz hisob-kitoblarni to'g'risidagi qonun hujjatlarining boshqa talablarga rioya qilish

2.2.6. Agar Shartnomada ko'rsatilgan Mijozning rekvizitlari o'zgartirilsa, ular rasmiy ro'yxatga olingan kundan boshlab 5 (besh) kun ichida bunday o'zgarishlar haqida Kompaniyani yozma ravishda xabardor qilish.

2.2.7. O'zbekiston Respublikasi G'aznachiligi orqali to'lovlarni amalga oshiruvchi yuridik shaxs-mijozlar uchun shartnomani qayta rasmiylashtirishni hisobot yilining oxirini kutmasdan amalga oshirish hamda ulanish/qayta rasmiylashtirish amalga oshirilgan oy oxirigacha O'zbekiston Respublikasi G'aznachiligida shartnoma ro'yxatga olinganidan so'ng lot raqamini Kompaniyaga majburiy tartibda taqdim etish

2.2.8. Shartnoma bo'yicha huquq va majburiyatlarni Kompaniyaning yozma rozilgisiz uchinchi shaxslarga o'tkazmaslik yoki begonalashtirmaslik.

2.2.9. Materiallardan, ma'lumotlardan, xizmatlardan va mahsulotlardan foydalanish bilan bog'liq xavflarni to'liq o'z zimmasiga olish va majburiyatini olish: a) Internet tarmog'ida; b) Kompaniya tomonidan foydalaniladigan kontent provayderlari.

2.2.10. Kompaniyaning rasmiy ma'lumotlari, shu jumladan ko'rsatiladigan xizmatlar ro'yxati, tariflari, Xizmatlarni ko'rsatish tartibi va shartlariga o'zgartirishlar to'g'risidagi ma'lumotlar bilan ommaviy axborot vositalarida, shu jumladan Kompaniyaning www.ucell.uz rasmiy veb-saytida mustaqil ravishda tanishish.

2.2.11. Xizmatlardan foydalanishni boshlashdan oldin, kutilmagan xarajatlarning oldini olish uchun shaxsiy hisob holatini, o'chirish chegarasi miqdorini, daqiqalar/megabaytlardagi mavjud trafik balansini, SMSlar sonini tekshirish. Bunda, Kompaniya ko'rsatilgan xizmatlar uchun qayta hisob-kitob qilmaslik huquqiga ega.

2.3. Tomonlar bayon qiladilar:

-Tomonlar, ularning bog'langan (o'zaro bog'liq) shaxslari va xodimlari ushbu Shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarish jarayonida O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlari talablarining buzilishiga olib keladigan korruptsiyaga qarshi kurashish va/yoki korruptsiya xarakterga ega bo'lgan, shu jumladan (lekin ular bilan cheklanmagan holda) pora berish yoki va'da qilish, pora olish, tovlamachilik, pora olishga bevosita yoki bilvosita rozilik berish kabi harakatlar/harakatsizliklarga yo'l qo'ymaydilar.

-Tomonlar, ular bilan bog'liq (o'zaro bog'liq) shaxslar va xodimlar boshqa Tomonning xodimlarini yoki vakolatli vakillarini uni rag'batlantirgan Tomon foydasiga har qanday harakat/harakatsizlikni amalga oshirishi uchun har qanday tarzda, shu jumladan pul, sovg'alar, ularga bepul xizmatlar ko'rsatish yoki ushbu xodimni ta'minlashga qaratilgan ishlarni bajarish orqali rag'batlantirishni rad etishadi.

2.4. Agar Tomon ushbu Shartnomaning 2.3-bandi qoidalarini buzilgan yoki buzilishi mumkin deb gumon qilsa, tegishli Tomon boshqa Tomonni bu haqda xabardor qilish majburiyatini oladi, O'zbekiston Respublikasining korruptsiyaga qarshi kurashish sohasidagi qonun hujjatlari normalari buzilganligi faktining rad etib bo'lmaydigan dalillari mavjud bo'lgan taqdirda, amaldagi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda vakolatli organlarga xabar qilish majburiyatini oladi.

3. Tomonlarning huquqlari

3.1. Kompaniyaning huquqlari:

3.1.1. Shartnoma shartlarni, tariflarni, xizmat ko'rsatish shartlarini, Xizmatlar uchun to'lov tartibi va shaklini bir tomonlama o'zgartirish.

3.1.2. Quydagi hollarda Mijozning barcha abonent raqamlari uchun Xizmatlarni ko'rsatishni cheklash yoki to'xtatib turish:

- a) mijoz tomonidan Shartnomaning 2.2.6-bandini bajarmaganda;
- b) mijozning shaxsiy hisobi miqdori Kompaniya tomonidan belgilangan o'chirish chegarasi miqdoridan past darajaga kamayganda;
- c) qarzdorlik o'z vaqtida qoplanmaganda;
- d) Mijoz tomonidan Shartnomaning boshqa shartlari buzilganda, shuningdek Kompaniyaning tarif rejalari va xizmatlaridan foydalanish qoidalarini buzilgan hollarda;
- e) Mavjud bo'lmagan to'lov kartalarini faollashtirishga, shuningdek lotereyalar, reklama, so'rovlar, ommaviy pochta jo'natmalari, ovoz berish, tanlovlar uchun abonent raqamidan foydalanishga bir necha bor urinishlar qilish orqali Mijoz tomonidan Kompaniyaga, shuningdek, Kompaniya xizmatlaridan foydalanuvchi boshqa mijozlarga va/yoki uchinchi shaxslarga zarar yetkazilganda;
- f) statsionar tarmoqqa va IP-telefoniyaga kirish shlyuzlarini o'rnatilganda, xavfsiz kompyuter tizimi va telekommunikatsiya tarmoqlariga noqonuniy (ruxsatsiz) kirish uchun maxsus dasturiy yoki texnik vositalarni sotish yoki sotish va tarqatish maqsadida ishlab chiqarilganda, shuningdek, noqonuniy (ruxsatsiz) telekommunikatsiya tarmoqlaridan foydalanish va belgilangan himoya tizimlarini chetlab o'tgan xalqaro trafikni o'tkazish, shuningdek, ushbu maqsadlar uchun mo'ljallangan maxsus dasturiy ta'minot yoki texnik vositalarni saqlash va ulardan foydalanish uchun shart-sharoitlarni yaratish hamda ularning ishlamay qolishiga olib keladigan boshqa chora-tadbirlar uchun telekommunikatsiya tarmoqlariga kirish, Kompaniyaning uskunalari yoki aloqa qurilmalariga zarar yetkazish kabi ishlar amalga oshirilganda;
- g) mijoz (yuridik shaxslar bundan mustasno) tomonidan o'z abonent raqamlarini uchinchi shaxslarga foydalanishi uchun berganda va Kompaniya tomonidan bunday holat aniqlanganda;
- h) O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida va Kompaniyaning rasmiy veb-saytida e'lon qilingan Xizmatlarni ko'rsatish qoidalarida belgilangan boshqa hollarda.

To'xtatib turish - bu Mijoz Shartnoma bo'yicha bajarilmagan majburiyatlarini qoplamaguncha/bajarmaguncha va Xizmatlarni ko'rsatishni to'xtatib turishga sabab bo'lgan sabablarni bartaraf etgunga qadar Xizmatlarni ko'rsatishni to'xtatishni anglatadi.

3.1.3. Shartnomaning "A" ilovasida ko'rsatilgan abonent raqam(lar)ini bir tomonlama tartibda bekor qilish:

- a) Mijozning ko'rsatilgan Xizmatlar uchun to'lanmaganligi uchun qarzi yuzaga kelgan kunidan 30 kundan keyin;
- b) Agar Mijoz amaldagi Narxlar va/yoki Kompaniyaning axborot materiallarida, shu jumladan Kompaniyaning rasmiy veb-saytida, shu jumladan Mijozning ijobiy qoldig'ida ko'rsatilgan muddat tugaganidan keyin Shartnoma bo'yicha xizmatlardan foydalanmasa.
- c) Shartnomaning 3.1.2-bandining "f" va "g" kichik bandlari buzilgan taqdirda.

3.1.4. Ishlab chiqarish zarurati yuzaga kelgan hollarda, abonent raqam(lar)ini o'zgartirish Klientni abonent raqam(lar)i o'zgarayotganligi haqida kamida 10 (o'n) kun oldin oldindan xabardor qilish sharti bilan amalga oshiriladi.

3.1.5. Xizmatlarni taqdim etish jarayonida Mijozning shaxsiy ma'lumotlarining bir qismi Xizmat ko'rsatishning uzluksizligi va to'g'riligini ta'minlash uchun uchinchi shaxslarga taqdim etilishi mumkin. Ushbu shartnomani imzolash va Kompaniya tarmog'i orqali taqdim etiladigan qo'shimcha kontent xizmatlariga ulanish uchun so'rov yuborish orqali Mijoz shaxsiy ma'lumotlarini Kompaniya tomonidan qo'shimcha kontent xizmatlarini taqdim etuvchi uchinchi shaxslarga (kontent provayderlari, to'lov agentlari, to'lov tashkilotlari va boshqalar), shuningdek operatorning axborot tizimlarini texnik qo'llab-quvvatlaydigan yetkazib beruvchilarga taqdim etishga rozilik beradi. Mijozni qo'shimcha kontent xizmatlaridan o'chirib qo'yish Mijozning shaxsiy ma'lumotlaridan foydalanish va qayta ishlashga roziligini bekor qilishi hisoblanadi. Ilgari uzatilgan ma'lumotlar uskunalarning texnik xususiyatlaridan kelib chiqqan holda tegishli tizimlarda saqlanishi mumkin. Bunda, shaxsiy ma'lumotlar, shu jumladan, lekin ular bilan cheklanmasdan, trafik ma'lumotlari va moliyaviy ma'lumotlar Kompaniya tomonidan faqat Xizmatlarni taqdim etish maqsadida to'planadi, shuningdek uchinchi shaxslarga qo'shimcha xizmatlar ko'rsatish uchun yig'iladi, ishlatiladi va qayta ishlanadi (kredit va moliyaviy reyting uchun skoring va boshqalar). Ularning xavfsizligi va maxfiyligi O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq Kompaniya tomonidan kafolatlanadi.

3.1.6. **"COSCOM" MchJ** abonentlarining shaxsiy ma'lumotlarining maxfiylik siyosati bilan quyidagi veb-saytda tanishishib chiqishingiz mumkin: <https://ucell.uz/uz/information/sustainability>

3.1.7. Kompaniya mustaqil ravishda va/yoki uchinchi shaxslar – kontragentlar yordamida Mijozning/Abonentning shaxsiy ma'lumotlarini, O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi va Kompaniyaning maxfiylik siyosatiga asosan, o'rnatilgan tartibda xizmat ko'rsatish maqsadida, yig'ish, foydalanish va ularga ishlov berish huquqiga ega.

3.1.8. Tizimda hisobga olish, hisob-kitob qilish va rejalari/rejadan tashqari ishlarni bajarishda texnik nosozliklar yuzaga kelgan taqdirda, Kompaniya xizmatlarni hisob-kitoblarsiz ko'rsatishni davom ettirish va nosozliklarni bartaraf etgandan so'ng ko'rsatilgan Xizmatlar uchun hisob-kitob qilish huquqini o'zida saqlab qoladi.

3.1.9. Kompaniyaning tegishli texnik imkoniyatlari mavjud bo'lmagan taqdirda, xizmatlarni qisman yoki to'liq taqdim etishni rad etish.

3.2. Mijozning huquqlari:

3.2.1. Tanlangan xizmatlar ro'yxatini Kompaniya tomonidan belgilangan tartibda o'zgartirish.

3.2.2. O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq Shartnomani bajarish bo'yicha Kompaniyaga da'volar kiritish.

3.2.3. Agar Kompaniya oldida qarzdorligi bo'lmasa, abonent raqam(lar)ini/Shartnomani Kompaniya tomonidan belgilangan tartibda qayta rasmiylashtirish.

4.Hisob-kitob tartibi

4.1. Shartnoma bo'yicha xizmatlar Mijoz tomonidan Kompaniyaning amaldagi tariflariga muvofiq to'lanadi..

4.2 Ushbu Shartnoma tomonlari Shartnomaning "A" ilovasida ko'rsatilgan Mijoz tomonidan tanlangan Xizmatlar asosida shartnoma narxining miqdori bo'yicha kelishuvga erishdilar, bunda "___" ___ 20___ dan "___" ___ 20___ yilgacha bo'lgan davr uchun umumiy summa ni tashkil etadi.

4.3. Tomonlar, agar O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo'lsa, Xizmatlar bo'yicha barcha tariflar O'zbekiston Respublikasining milliy valyutasi so'mda ko'rsatilgan va hisoblanganligi to'g'risida kelishib oлдilar.

4.4. Mijozga xizmatlar ko'rsatish Shartnomaning 2.2.2 va 2.2.3 bandlariga muvofiq oldindan to'lov shartlari asosida amalga oshiriladi. Oldindan to'lov Mijozning har bir abonent raqami uchun tanlangan Xizmatlar ro'yxati va Kompaniyaning amaldagi tariflariga muvofiq amalga oshiriladi.

4.5. Kompaniya xizmatlari uchun to'lov Mijoz tomonidan quyidagi usullardan biri bilan amalga oshirilishi mumkin: naqd pulsiz hisob-kitob (bank to'lovi yoki Mijozning korporativ plastik kartasi). Mijozning shaxsiy hisobvarag'iga pul mablag'lari tushgan paytdan boshlab to'lov amalga oshirilgan hisoblanadi. Mijozning shaxsiy hisobiga pul mablag'lari tushgan paytdan boshlab to'lov amalga oshirilgan hisoblanadi.

4.6. Mijoz to'lov hujjatlarida Shaxsiy hisob raqamini (ID) majburiy ko'rsatgan holda Xizmatlar uchun to'lovni amalga oshiradi. Abonent raqamlaridan foydalanganda Kompaniya tomonidan ko'rsatiladigan xizmatlar avtomatik ravishda bitta Mijozning Shaxsiy kabinetida barcha Abonent raqamlari uchun to'lov sifatida hisobga olinadi, xizmatlar ushbu Mijozning Shaxsiy kabinetida hisobga olinadi. Mijozning hohishiga ko'ra, Kompaniya tomonidan taqdim etilgan Xizmatlar bir nechta Shaxsiy hisoblarda hisobga olinishi mumkin.

4.7. Tomonlarning hisob-kitoblarida hisobot davri bir kalendar oyiga teng qabul qilinadi (oyning birinchi kuni - hisobot davrining boshi, oyning oxirgi kuni - hisobot davrining oxiri).

4.8. Hisob-fakturalar 2.1.4-bandga muvofiq tuziladi. O'zbekiston Respublikasi rezidenti bo'lmagan Mijozlar uchun foydalanilgan Xizmatlar uchun to'lov valyutasi va to'lov shakli O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari bilan belgilanadi.

4.9. Ko'rsatilgan xizmatlar uchun hisob-fakturalar Kompaniya tomonidan hisobot davri tugagandan so'ng, hisobot davridan keyingi oyning 10-sanasisiga qadar Soliq.uz sayti orqali elektron shaklda rasmiylashtiriladi va Mijoz tomonidan Kompaniyada belgilangan muddatlarda to'lanadi. Mijoz tomonidan hisob-fakturaning yoki to'lovni amalga oshirish zarurligi to'g'risidagi bildirishnomaning olmaganligi yoki o'z vaqtida olmaganligi Mijozning Xizmatlar uchun haq to'lashdan bosh tortishi uchun asos bo'lmaydi. Mijoz qo'shimcha ma'lumotlarni va to'lov uchun hisob-fakturalarni so'rashi va uni o'z manziliga elektron pochta orqali yoki bosma shaklda Kompaniya ofisida olishi mumkin. Kompaniya O'zbekiston Respublikasida naqd pulsiz hisob-kitoblarni to'g'risidagi nizomga muvofiq Mijozning (yuridik shaxsning) bank hisob raqamiga har bir hisobot davrining yakunida aksept va akseptsiz tartibda to'lov talabnomalarini berish huquqiga ega.

4.10. Agar Kompaniya va Mijoz o'rtasida bir nechta Shartnomalar tuzilgan bo'lsa, Kompaniya Mijozning boshqa Shartnoma bo'yicha qarzini qoplash uchun shunday Shartnomalardan biri bo'yicha Mijozdan olingan to'lovlarni yo'naltirish (hisoblash) huquqiga ega.

4.11. Roumingda ko'rsatilgan Xizmatlar bo'yicha hisob-kitoblarni Kompaniya rouming-hamkorlarining operatorlaridan ko'rsatilgan Xizmatlar to'g'risida ma'lumotni olishi bilan amalga oshiriladi.

5. Tomonlarning javobgarliklari

5.1. Kompaniya faqat mijozga yetkazilgan to'g'ridan-to'g'ri va tasdiqlangan zararlar uchun javobgar bo'ladi. Bilvosita yo'qotishlar, ma'naviy zarar, yo'qotilgan foyda qonun hujjatlarida belgilangan tartibda qoplanadi.

5.2. Tomonlar o'z majburiyatlarini bajarmaganliklari yoki lozim darajada bajarmaganliklari uchun O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi va ushbu Shartnomaga muvofiq javobgar bo'ladilar.

5.3. Agar qarz qoplanmagunga qadar vaqtinchalik qarzdorlik yuzaga kelsa, Xizmatlarni ko'rsatish to'xtatilishi mumkin. Mijoz qarzni to'lamagan taqdirda, Kompaniya kechiktirilgan har bir kun uchun qarzning 0,4% miqdorida penya undirish huquqiga ega, biroq penya miqdori qarzning 50% dan oshmasligi kerak. Foizlarni hisoblash qarz hosil bo'lgan paytdan boshlanadi. Agar Mijoz qarzdorlik paydo bo'lgandan keyin 30 (o'ttiz) kun o'tgach to'lovni amalga oshirmasa, Xizmatlar to'liq to'xtatilishi mumkin va Kompaniya abonent raqam(lar)ini bekor qilish va/yoki Shartnomani bir tomonlama bekor qilish huquqini o'zida saqlab qoladi. Shartnomani bekor qilish Tomonlarni u bo'yicha majburiyatlarni qisman yoki to'liq bajarmaganlik uchun javobgarlikdan ozod qilmaydi.

5.4. Tomonlar Shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarmaganliklari yoki lozim darajada bajarmaganliklari uchun javobgarlikdan ozod qilinadilar, agar bu holat Shartnoma tuzilgandan keyin yuzaga kelgan fors-major holatlarining natijasi bo'lsa. Fors-major holatlari bu Tomonlar o'zlarida mavjud bo'lgan vositalar bilan oldindan aytib bo'lmaydigan yoki oldini olish mumkin bo'lmagan favqulodda hodisalar yoki holatlar hisoblanadi. Bunday "favqulodda hodisalar yoki holatlar"ga, lekin ular bilan cheklanmagan holda: yong'inlar, tabiiy ofatlar (suv toshqini, zilzilalar va boshqalar), harbiy harakatlar, O'zbekiston Respublikasi vakolatli davlat organlarining harakatlari yoki qarorlari, shuningdek, boshqa har qanday Tomonlarning oqilona nazorati ostida bo'lmagan, favqulodda xarakterini tomonlar oldindan ko'ra olmaydigan yoki oldini olishga qodir bo'lmagan holatlar kiradi.

5.5. Kompaniya, agar bu uchinchi shaxslarning xatti-harakatlari, abonent qurilmasining noto'g'ri ishlashi, shuningdek, O'zbekiston Respublikasining muvofiqlik sertifikatga ega bo'lmagan va/yoki O'zbekiston Respublikasi standartlarining belgilangan talablariga javob bermaydigan abonent qurilmasidan foydalanganligi sababli xizmatlarni taqdim etishning mumkin emasligi uchun javobgar hisoblanmaydi.

5.6. Mijoz telekommunikatsiyalar sohasidagi qonun hujjatlari normalarini buzganlik uchun O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq javobgar bo'ladi.

6. Shartnomani bekor qilish

6.1. Ushbu Shartnoma imzolangan paytdan e'tiboran kuchga kiradi va ___ yilgacha yoki ko'rsatilgan xizmatlar hajmi ushbu Shartnomaning 4.1-bandida ko'rsatilgan Shartnoma narxiga yetgunga qadar, qaysi biri birinchi bo'lib kelishidan va yakuniy to'lovlar nuqtai nazaridan ushbu Shartnoma tomonlar o'z majburiyatlarini to'liq bajarmaguncha amal qiladi.

6.2. Ushbu Shartnomaning amal qilish muddati tugagandan so'ng, Kompaniya Mijozdan xizmatlarni ko'rsatishni to'xtatish to'g'risida yozma xabar olgunga qadar ushbu Shartnoma talablariga muvofiq xizmatlarni taqdim etadi. Kompaniya tomonidan ko'rsatilgan xabarnoma olgunga qadar ko'rsatilgan xizmatlar Mijozning roziligi bilan ko'rsatilgan hisoblanadi va to'lov amalga oshirilishi kerak.

6.3. Mijoz kutilayotgan bekor qilish kunidan kamida 10 (o'n) kalendar kun oldin Kompaniyani yozma ravishda xabardor qilgan holda, ushbu Shartnomani bekor qilishi mumkin.

6.4. Kompaniya Shartnomaning 3.1.2 va 3.1.3 bandlariga muvofiq Xizmatlarni ko'rsatish to'xtatilgandan 30 (o'ttiz) kundan keyin Mijozni bu haqda hech qanday ogohlantirmasdan Shartnomani bekor qilishi mumkin.

6.5. Ushbu Shartnomani bekor qilishda, Tomonlar o'zlarining barcha majburiyatlari bo'yicha o'zaro hisob-kitoblarni amalga oshirishlari kerak. Barcha o'zaro hisob-kitoblarni amalga oshirilgandan so'ng Mijozning shaxsiy hisobidagi mablag' qoldig'i Mijoz tomonidan O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida belgilangan da'vo muddati mobaynida Kompaniya tomonidan belgilangan tartibda talab qilib olinishi mumkin. Mablag'lar qoldig'i O'zbekiston Respublikasi milliy valyutasi Mijozning joriy hisob raqamiga, agar Mijoz jismoniy shaxs bo'lsa, mijozning plastik kartasiga qaytariladi.

6.6. Pul mablag'larini qaytarish Kompaniya tomonidan faqat naqd pulsiz shaklda, Mijozning bank hisob raqamiga pul mablag'larini o'tkazish yo'li bilan amalga oshiriladi.

6.7. O'zbekiston Respublikasi rezidenti bo'lmagan Mijozlarga pul mablag'larini qaytarish valyutasi va tartibi O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi bilan belgilanadi.

7. KORRUPTSIYAGA QARSHI KELISHUV

7.1 Tomonlar, ularning vakolatli (o'zaro bog'liq) shaxslari va xodimlari ushbu Shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarish jarayonida O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlari talablarining buzilishiga olib keladigan korruptsiyaga qarshi va/yoki korruptsion xususiyatga ega, shu jumladan (lekin ular bilan cheklanmagan holda) pora berish yoki va'da qilish, pora olish, tovlamachilik, pora olishga bevosita yoki bilvosita rozilik berish kabi harakatlar/harakatsizliklarga yo'l qo'ymaydilar;

Tomonlar, ularning vakolatli (o'zaro bog'liq) shaxslari va xodimlari boshqa Tomonning xodimlarini yoki vakolatli vakillarini har qanday usulda, shu jumladan pul mablag'lari, sovg'alarni berish, ularga bepul xizmatlar ko'rsatish yoki ushbu xodimning ishlashini ta'minlashga qaratilgan ishlarni bajarish orqali rag'batlantirishni yoki uni rag'batlantirgan Tomon foydasiga har qanday harakat/harakatsizlikning vakolatli vakili tomonidan amalga oshirilishini rad etadilar.

7.2 Agar Tomonlardan biri ushbu Qo'shimchani 1.1-bandi qoidalarining buzilishi sodir bo'lgan yoki sodir bo'lishi mumkin deb gumon qilsa, va agar O'zbekiston Respublikasi korruptsiyaga qarshi kurashish sohasi qonunchiligi buzilganligi to'g'risida rad etib bo'lmaydigan dalillar mavjud bo'lsa, tegishli Tomon ikkinchi Tomonni, shuningdek, amaldagi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda vakolatli organlarni xabardor qilish majburiyatini oladi.

8 Boshqa qoidalar

8.1 Mijozga ko'rsatiladigan xizmatlar radioto'lqinlarning tarqalishining tabiiy sharoitlari tufayli yomonlashishi, uzilishi yoki shovqin bilan birga bo'lishi mumkin va konstruktiv xususiyatlariga ko'ra Kompaniyaning vakolatiga kirmaydigan boshqa mobil operatorlar va statsionar aloqa tarmoqlarining telefon aloqasi sifatiga bog'liq bo'lishi mumkin. Xizmatlar sifatining yomonlashuvi yoki to'xtatilishi quyidagi holatlar oqibatida yuzaga kelgan bo'lsa, Kompaniya buning uchun javobgar bo'lmaydi: radioto'lqinlarning tabiiy tarqalishi va to'qnashuvi, shovqinlar va to'siqlarning ta'siri; hudud relyefining yoki binolar qurilishining mahalliy xususiyatlari; mijozning/ abonentning binolar ichida, yerto'lada, tunnellarda yoki boshqa yer osti inshootlarida joylashuvi; ышоя/abonent uskunasi texnik xususiyatlari va holati; ob-havo sharoitlari hamda Kompaniyaning ta'sir ko'rsatishi yoki oldindan bilishi mumkin bo'lmagan boshqa sabablar.

8.2 Kompaniya o'zining texnik imkoniyatlari va xizmat ko'rsatish sohasini hisobga olgan holda Xizmatlarni taqdim etadi. Mijoz Kompaniyaning xizmat ko'rsatish sohasi haqidagi ma'lumotlar bilan tanish va taqdim etilayotgan aloqaning sifati, ishonchiligi, Kompaniya xizmatlarini ko'rsatish qoidalarini va shartlari bo'yicha xususiyatlari bilan rozi bo'ladi.

8.3 Kompaniya O'zbekiston Respublikasi davlat organlarining qarorlarini bajarish, shuningdek, sifatning vaqtincha yomonlashishiga va Xizmatlarni ko'rsatishda uzilishlarga olib kelishi mumkin bo'lgan ishlab chiqarish ehtiyojlari bilan bog'liq bo'lgan (profilaktika, ta'mirlash ishlarini olib borish va h.k.) ishlarni amalga oshirish huquqini o'zida saqlab qoladi. Mijoz, agar buzilish va uzilishlar uzluksiz ravishda 24 soatdan oshmasa, Kompaniya uning oldida javobgar emasligiga rozi bo'ladi.

8.4 Mijoz kelajakda Shartnomani tuzish shakli va uning shartlari Kompaniya tomonidan bir tomonlama tartibda o'zgartirilishi va ushbu Shartnomani almashtirishi mumkinligiga so'zsiz rozi bo'ladi. Kompaniyaning rasmiy veb-saytida Shartnomaning yangi shartlari boshqa shaklda (yangi shartnoma) e'lon qilingan paytdan boshlab Mijozlarga Xizmatlarni ko'rsatish shartlari yangi shartnoma shartlariga muvofiq belgilanadi. Bunday holda, ushbu Shartnomani imzolash yoki qayta imzolash talab qilinmaydi. Yangi shartnoma shartlariga rozi bo'lmagan taqdirda, mijoz yangi shartnoma Kompaniyaning rasmiy veb-saytida e'lon qilingan kundan boshlab 30 kun ichida Kompaniyani yangi shartnoma shartlarini qabul qilish rad etilganligi to'g'risida yozma ravishda xabardor qilishga haqlidir. Agar Kompaniya belgilangan muddatda mijozning yangi shartnoma shartlarini qabul qilishni rad etish, shuningdek, Mijoz tomonidan harakatlarni amalga oshirish yoki davom ettirish (Xizmatlardan haqiqiy foydalanish) to'g'risidagi arizasini olmasa, bu mijozning so'zsiz va ushbu Shartnoma o'rniga yangi shartnoma shartlarini to'liq qabul qilganligini bildiradi. Bunday holda, Shartnomaning 7.9-bandidagi talab qo'llanilmaydi.

8.5 Tomonlar Shartnomani tuzish, ijro etish, o'zgartirish va bekor qilish bilan bog'liq boshqa hujjatlarni imzolashda Kompaniya vakolatli shaxsining qo'lyozma imzosi analogini faksimil orqali tasdiqlashga ruxsat berilishiga kelishib oldilar.

8.6 Tomonlar faqat muzokaralar orqali, yuzaga keladigan har qanday kelishmovchiliklarni bartaraf etish uchun barcha sa'y-harakatlarini amalga oshiradilar. Agar kelishmovchiliklarni muzokaralar yo'li bilan hal etishning iloji bo'lmasa, Tomonlar O'zbekiston Respublikasining qonunchiligiga binoan O'zbekiston Respublikasi sud idoralariga murojaat qilishadi.

8.7 Ushbu Shartnomada tartibga solinmagan masalalarda Tomonlar mobil aloqa xizmatlarini ko'rsatish qoidalariga va O'zbekiston Respublikasi qonunchiligining boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlariga, shuningdek, Kompaniyaning ichki hujjatlariga, Kompaniyaning rasmiy veb-saytida e'lon qilingan xizmatlarni taqdim etish shartlari va qoidalarga amal qiladilar.

8.8 Shartnomaga kiritilgan barcha o'zgartirishlar va qo'shimchalar, agar ular yozma ravishda bayon qilingan va Shartnomaning 2.1.3-bandi talablarini hisobga olgan holda, har ikki Tomon tomonidan imzolangan bo'lsa, uning ajralmas qismi hisoblanadi.

8.9 Shartnoma imzolangan paytdan e'tiboran kuchga kiradi va Tomonlardan biri uni bekor qilish istagini bildirgunga qadar muddatsiz xarakterga ega bo'ladi.

8.10 Shartnoma 2 nusxada rus tilida tuzilgan. Ikkala nusxa ham bir xil kuchga ega.

8.11 Shartnoma imzolaniishi bilan Tomonlar o'rtnasidagi oldingi yozishmalar va muzokaralar o'z kuchini yo'qotadi.

9. Tomonlarning imzolari:

Mijoz:

Kompaniya:

Imzo: _____

“COSCOM” mas’uliyati cheklangan jamiyat (Ucell savdo belgisi)

Imzo:

Sana: « ____ » _____ 20__y.
M.O'.

Sana:
M.O'.